

Mo'g'iliston Fanlar akademiyasi delegatsiyasi Sharqshunoslik institutida

Joriy yil 6-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutiga Mo'g'iliston Fanlar akademiyasi prezidenti boshchiligidagi delegatsiyasi tashrif buyurdi. Institut faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Shundan so'ng O'zbekiston va Mo'g'iliston Fanlar akademiyasi o'rtasida gumanitar yo'nalish bo'yicha ham hamkorlikda qator memorandumlar, shartnoma va ilmiy loyihalarni amalga oshirish hamda konferensiyalar tashkil etish masalalari muhokama qilindi.



Ushbu tashrif tomonlarni qiziqtirgan masalalarni muhokama etish uchun qulay imkoniyat bo'lganligini ta'kidladilar hamda kelgusidagi hamkorlikni yangi bosqichda davom ettirishga kelishib olindi.